


ORIENTFINANSBANK

“Orient Finans” XATB
Boshqaruvining
2025 yil “30” sentabr dagi
143 -sonli bayonnomasi
“TASDIQLANGAN”



**«ORIENT FINANS» XATB DA AJRATILGAN KREDIT TA'MINOTIGA QABUL
QILINGAN GAROV MULKLARINI KREDITNING ASOSIY QARZI QOLDIG'IGA
MUTANOSIB RAVISHDA BOSQICHMA-BOSQICH GAROV DAN CHIQUARISH YOKI
GAROV NARSASINI ALMASHTIRISH BO'YICHA TARTIB
(1-tahrir)**

Kelishilgan:

Boshqaruv Raisi
o'rinbosari-
B.E.Normatov

Yuridik xizmat
departamenti direktori
T.U.Umarov

Boshqaruv Raisi o'rinbosari-Ijroiya
apparat rahbari
Tursunov I.T.

Korporativ biznesni rivojlantirish va
kreditlash departamenti direktori
Z.Z.Ruziev

Bosh xisobchi
D.T. Rahimov

*Ushbu hujjat “Orient Finans” XATB xususiy mulki
bo'lib, xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan.
Ushbu hujjatni to'liqligicha va/yoki ayni bir qismini,
ko'chirma nusxalarini yaratish yoki bank xodimi
bo'lmagan uchinchi shaxslarga Bank rahbariyati
bilan kelishmagan holda taqdim etilishi taqiqlanadi.*

Hujjat kodi

080-458

Amal qilish muddati

15 OCT 2025

dan

15 OCT 2030

Uzaytirilgan


TOSHKENT 2025

HUQUQIY EKSPERTIZA

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomning (Adliya vazirligida 2000 yil 05 aprelda 916-son bilan ro'yxatga olingan) 3.1-bandi talablariga muvofiq Yuridik xizmat departamenti tomonidan ushbu ichki me'yoriy hujjatning amaldagi qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida "Orient Finans" XATB Xodimlarni baholash va rivojlantirish qo'mitasi to'g'risidagi nizom huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Ushbu ichki hujjat O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga, Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida Nizom (AV ro'yxat raqami 3030, 02.07.2018 yil) ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, amaldagi qonun hujjatlariga zid emas.

Yuridik xizmat departamenti Direktori



T.U.Umarov

MUNDARIJA

O'zgartirishlarni qayd etish varaqchasi

1. UMUMIY QOIDALAR.....	5
2. ASOSIY TAMOIYILLAR.....	5
3. GAROVNI OZOD QILISH VA GAROVNI AMLASHTIRISH SHARTLARI.....	5
4. OZOD QILISH TARTIBI VA KETMA-KETLIGI	6
5. GAROVDAN OZOD QILISH TARTIB-TAOMILI (PROTSEDURASI).....	6
6. GAROV MULKINI ALMASHTIRISH TARTIB-TAOMILI (PROTSEDURASI).....	7
7. YAKUNIY QOIDALAR.....	8

O'ZGARTIRISHLARNI QAYD ETISH BETI

№	Varaqlar soni (soni)				Umumiy varaqlar (betlar) soni	O' zgartirish	Imzo	Sana
	O' zgartirilgan	Almashtirilgan	Yangilar	Olinganlar				
1	2	3	4	5	6	7	8	9

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur «Orient Finans» XATBda ajratilgan kredit ta'minotiga qabul qilingan garov mulklarini kreditning asosiy qarzi qoldig'iga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish bo'yicha tartib (keying o'rinlarda - Tartib) Qarzdorning Kredit shartnomasi va boshqa turdagi Bank mahsulotlari bo'yicha majburiyatlarini ta'minlash uchun berilgan garovdagi mol-mulkning bir qismini garovdan ozod qilish (chiqarish) tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.2. Mazkur tartibda kredit shartnomasi deyilganda Bank tomonidan ajratiladigan barcha turdagi kreditlar, faktoring, mikroqarzlar, bank kafolati va ta'minot taqdim etishni talab etuvchi boshqa bank mahsulotlari nazarda tutiladi va mazkur badda ko'rsatilgan mahsulotlar bilan cheklanilmaydi.

1.3. Mazkur Tartibda belgilangan qoida va shartlar Garovga qo'yuvchi tomonidan Bankka tegishli yozma murojaat mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

2. ASOSIY TAMOYILLAR

2.1. Bank Qarzdor/Garovga qo'yuvchilarning murojaatlarini ko'rib chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

2.1.1. murojaatlarni ob'yektiv va shaffof tarzda ko'rib chiqish;

2.1.2. murojaatlarni Qonunchilikka va ichki siyosatlarga muvofiq ko'rib chiqish;

2.1.3. Tenglik va harajatlarni taqsimlash tamoyili.

2.1.4. Tavakkalchilikni boshqarish tamoyili – garovni ozod qilish jarayoni Kreditlarning tavakkalchiliklarini oshirmasligi va qarzdorlik ta'minlanganlik darajasini pasaytirmasligi kerak.

3. GAROVNI OZOD QILISH VA GAROVNI AMLASHTIRISH SHARTLARI

3.1. Garovdagi mol-mulkni ozod qilishga faqat quyidagi shartlar bir vaqtda bajarilganda ruxsat beriladi:

3.1.1. Muddati o'tgan qarzdorlikning yo'qligi: Murojaat ko'rib chiqilayotgan sanada Qarzdorda garov bilan ta'minlangan Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarz yoki hisoblangan foizlar (shu jumladan, agar mavjud bo'lsa, komissiyalar, jarimalar va penyalari) bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik bo'lmasligi kerak.

3.1.2. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomda belgilangan tasniflarga muvofiq garov bilan ta'minlangan kreditning tasnifi Substandartdan past (qoniqarli, shubxali va umidsiz) bo'lmasligi kerak.

3.1.3. Garovda turgan boshqa mulklarning bozor bahosi tushib ketmagan bo'lsa.

3.1.4. Qolgan garovning yetarililigi (Qoplash Koeffitsienti): Mol-mulkning bir qismi ozod qilingandan so'ng, garovda qolgan mol-mulkning bozor qiymati Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarzning qolgan summasining kamida 125% (1.25) ini qoplashi kerak.

Tekshiruv formulasi: (Garovda qolgan mol-mulkning bozor qiymati) $\geq$ (Asosiy qarz qoldig'i) $\times$ 1.25

3.2. Garov mulkini ozod qilish bilan bog'liq harajatlar (agar mavjud bo'lsa) Qarzdor yohud Garovga qo'yuvchi tomonidan qoplanadi.

4. OZOD QILISH TARTIBI VA KETMA-KETLIGI

4.1. Garovga qo'yuvchining tanlash huquqi: Garovga qo'yuvchi Garovni ozod qilish shartlari (2-bob) bajarilgan taqdirda, garovdan ozod qilinadigan muayyan mol-mulk birliklarini tanlash huquqiga ega.

4.2. Ozod qilish ketma-ketligi (Navbati): Garovga qo'yuvchining aniq ko'rsatmasi bo'lmaganda yoki Qoplash Koeffitsientini saqlash uchun navbatni tanlash zarur bo'lganda, ozod qilish quyidagi ustuvor ketma-ketlikda (yuqori ustuvorlikdan pastga qarab) amalga oshiriladi:

1. ****Uskunalar va maxsus texnika****
2. ****Engil transport vositalari****
3. ****Ko'chmas mulkning barcha turlari**** (turar va noturar)

5. GAROV DAN OZOD QILISH TARTIB-TAOMILI (PROTSEDURASI)

5.1. Qarzdor (agar garovga qo'yuvchi uchunchi shaxs bo'lsa garovga qo'yuvchining o'zi) garovdan chiqarishni so'rayotgan aniq mol-mulkni ko'rsatgan holda kredit ajratgan Bank xizmatlari markaziga yozma ariza taqdim etadi. Garovga qo'yuvchi arizasida aniq ko'rsatilgan garov mulkini ozod etishni so'raganligi aynan mazkur mulk garovdan ozod etilishini kafolatlamaydi.

5.2. Qarzdor/Garovga qo'yuvchining arizasi Kredit ajratgan Bank xizmatlari markazining murojaatlarni ro'yxatga olish kitobidan o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinadi va kreditlash bo'linmasiga o'rganib chiqish uchun Boshqaruvchi rezolyutsiyasi bilan ijroga yuboriladi.

Garovdan chiqarish so'ralayotgan yozma ariza kelib tushgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi va yakuniy qaror qabul qilinishi lozim.

5.3. Kredit ajratgan Bank xizmatlari markazining kreditlash bo'linmasi xodimi garovdan ozod etish so'ralgan kreditning tasnifi va mazkur tartib shartlariga muvofiqligini tekshiradi.

5.4. Kreditlash bo'linmasi xodimi quyidagilarni o'z ichiga olgan holda, Garovni ozod qilish shartlari (2-bob) ga rioya etilishini tekshiradi:

- 5.4.1. Kreditning tasnifi.
- 5.4.2. Muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligini tekshirish.
- 5.4.3. Garovda qolgan mol-mulkning bozor qiymatini yangilash (zarurat bo'lsa).
- 5.4.4. Qoplash Koeffitsientini hisoblash.

5.5. Agar arizada keltirilgan garov va u bilan ta'minlangan kredit mazkur tartibda belgilangan shartlarga muvofiq bo'lsa, kreditlash bo'linmasi xodimi mazkur masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinishi uchun Bank xizmatlari markazi kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

5.6. Kredit qo'mitasi muhokamaga kiritilgan masalani o'rganib chiqib, tekshiruv natijalariga asosan ozod qilishni tasdiqlash, qisman tasdiqlash (ro'yxatni tuzatish bilan), arizada ko'rsatilgan mulkni garovda qoldirish va uning o'rniga boshqa garov mulkni ozod qilish yohud garov mulklarini ozod qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

5.7. Kredit qo'mitasi tomonidan quyidagi xolatlarda garov mulkini qisman ozod etish arizasini rad qilishi mumkin:

5.7.1. Kreditning tasnifi standartdan tasnifdan past bo'lsa;

5.7.2. Kreditlash jarayonida muntazam ravishda muddati o'tgan qarzdorliklar vujudga kelish holatlari bo'lsa;

5.7.3. Garovga qabul qilingan garov ob'ektining joriy va yaqin kelajakda bozor narxi tushib ketish ehtimoli mavjud bo'lsa;

5.7.4. Kredit qaytarilishi bo'yicha boshqa ob'ektiv risklar mavjud bo'lsa.

5.8. Kredit qo'mitasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda:

5.8.1. Tomonlar Garov shartnomasiga/Kredit shartnomasiga mol-mulkning chiqarilishini qayd etuvchi Qo'shimcha kelishuv imzolaydilar (Agar bunga zarurat bo'lsa).

5.8.2. Bank, agar qo'llanilsa, ozod qilingan mol-mulkdan (masalan, Kadastr agentligi, YHXBB) tegishli davlat yoki ro'yxatga oluvchi organlardagi majburiyatni olib tashlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

5.8.3. Kredit qo'mitasining qarori rasmiylashtirilgan va imzolangan sanadan boshlab, 3 (uch) ish kuni ichida Arizachiga ma'lum qilinadi.

5.9. Kredit qo'mitasi tomonidan rad qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda:

5.9.1. Qarzdor/Garovga qo'yuvchiga garovdan ozod etishning rad etilish sabablari (masalan, qoplashning yetarli emasligi, muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligi) ko'rsatilgan yozma xabarnoma yuboriladi.

6. GAROV MULKINI ALMASHTIRISH TARTIB-TAOMILI (PROTSEDURASI)

6.1. Qarzdor (agar garovga qo'yuvchi uchunchi shaxs bo'lsa garovga qo'yuvchining o'zi) garovdagi aniq mol-mulkni boshqa mol-mulkka almashtirish to'g'risida kredit ajratgan Bank xizmatlari markaziga yozma ariza taqdim etadi. Arizaga garovdan chiqarilishi so'ralayotgan mulk o'rniga ta'minot sifatida taqdim etilishi rejalashtirilayotgan mol-mulkklar to'g'risida batafsil ma'lumot (mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat, mol-mulkning bozor bahosi va boshqalar) taqdim etishi lozim.

6.2. Qarzdor/Garovga qo'yuvchi arizasida aniq ko'rsatilgan garov mulkini ozod etish va uning o'rniga boshqa ta'minot berishni so'raganligi aynan mazkur mulk garovdan ozod etilishi, yohud ta'minot sifatida taklif etilayotgan mulkni garovga qabul qilinishini kafolatlamaydi.

6.3. Qarzdor/Garovga qo'yuvchining arizasi Kredit ajratgan Bank xizmatlari markazining murojaatlarni ro'yxatga olish kitobidan o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinadi va kreditlash bo'linmasiga o'rganib chiqish uchun Boshqaruvchi rezolyutsiyasi bilan ijroga yuboriladi.

Garovdan chiqarish so'ralayotgan yozma ariza kelib tushgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi va yakuniy qaror qabul qilinishi lozim.

6.4. Kredit ajratgan Bank xizmatlari markazining kreditlash bo'linmasi xodimi garovdan ozod etish va o'rniga yangi ta'minot qabul qilish so'ralgan kreditning tasnifi va mazkur tartib shartlariga muvofiqligini tekshiradi.

6.5. Kreditlash bo'linmasi xodimi quyidagilarni o'z ichiga olgan holda, Garovni ozod qilish shartlari (2-bob) ga rioya etilishini tekshiradi:

6.5.1. Muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligini tekshirish.

6.5.2. Garovda qolgan mol-mulkning bozor qiymatini yangilash (zarurat bo'lsa).

6.5.3. Qoplash Koeffitsientini hisoblash.

6.6. Agar arizada keltirilgan garov va u bilan ta'minlangan kredit mazkur tartibda belgilangan shartlarga muvofiq bo'lsa, hamda yangi taklif etilayotgan garov mulki Bank talablariga muvofiq bo'lsa, kreditlash bo'linmasi xodimi mazkur masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinishi uchun Bank xizmatlari markazi kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

6.7. Kredit qo'mitasi muhokamaga kiritilgan masalani o'rganib chiqib, tekshiruv natijalariga asosan ozod qilishni tasdiqlash, qisman tasdiqlash (ro'yxatni tuzatish bilan), arizada ko'rsatilgan mulkni garovda qoldirish va uning o'rniga boshqa garov mulkni ozod qilish yohud garov mulklarini ozod qilishni rad etish, yangi taklif etilayotgan garov mulkini qabul qilish yoki qilmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

6.8. Kredit qo'mitasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda:

6.8.1. Tomonlar Garov shartnomasiga/Kredit shartnomasiga mol-mulkning chiqarilishini qayd etuvchi Qo'shimcha kelishuv imzolaydilar (Agar bunga zarurat bo'lsa).

Yangi taklif etilayotgan garov mulki o'rnatilgan tartibda garovga taqdim etilgandan so'ng (garov shartnomasi tuzilgan, lozim bo'lsa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) so'ralgan garov mulkini ozod etilganligi to'g'risida tegishli idoralarga ma'lumot beriladi.

6.8.2. Bank, agar qo'llanilsa, ozod qilingan mol-mulkdan (masalan, Kadastr agentligi, YHXBB) tegishli davlat yoki ro'yxatga oluvchi organlardagi majburiyatni olib tashlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

6.8.3. Kredit qo'mitasining qarori rasmiylashtirilgan va imzolangan sanadan boshlab, 3 (uch) ish kuni ichida Arizachiga ma'lum qilinadi.

6.9. Kredit qo'mitasi tomonidan rad qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda:

6.9.1. Garovga qo'yuvchiga garovdan ozod etishning sabablari (masalan, qoplashning yetarli emasligi, muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligi) ko'rsatilgan yozma xabarnoma yuboriladi.

6.9.2. Yangi taklif etilgan garov mulkining Bank talablariga muvofiq kelmaganligi (nolikvid, bozor bahosi juda yuqori, noyob va boshqa)

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Ushbu Tartib Bank Boshqaruv bayoni bilan tasdiqlangandan so'ng, Yuridik xizmat departamenti Metodologiya va huquqiy ta'minot bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan sanadan boshlash kuchga kiradi.

7.2. Ushbu hujjatning ayrim normalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/ yoki Bank Ustaviga zid bo'lsa, ushbu normalar o'z kuchini yo'qotadi va mazkur normalar bilan tartibga solinadigan masalalarda amaldagi qonun hujjatlardan amal qilish lozim.

7.3. Hujjatning asl nusxasi Yuridik xizmat departamenti Metodologiya va huquqiy ta'minot bo'limida saqlanadi va nusxalarni taqdim etilishi nazorati amalga oshiriladi.

7.4. Hujjatni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirishlar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish va boshqa holatlar hujjat ishlab chiquvchisi tomonidan Bank Boshqaruvining 2024 yil 23 maydagi 54-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan 5-tahrirdagi "«Orient Finans» XATBda hujjatlar yuritish tartiboti"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Matn yakuni

Ishlab chiqildi:

Korporativ biznesni rivojlantirish va kreditlash departamenti direktori



Z.Z. Ruziev

Kelishildi:

Tavakkalchilikni boshqarish departamenti direktori




Sh.U. Shadmanov

Chakana biznes Departamenti direktori



A.A. Ismatov

Korruptsiyaga qarshi komplaens boshqarmasi boshlig'i



Sh.Sh. Shamansurov